

**O‘ZBEK XALQ SHEVALARIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING
IZOHLANISHI**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O‘zbek
tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Mardonova Sug‘diyona Nasibillo qizi

*Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasii
assistenti Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek shevalariga oid ba’zi so‘zlarning izohlari berildi. Bilamizki, adabiy tilning asosini xalq shevalari tashkil qiladi. Adabiy tilni mukammal o‘rganishda dialektal so‘zlarni bilish muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, maqolada ayrim so‘zlarning ma’nolariga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar. Xalq shevalari, dialektal so‘zlar, adabiy til, eskanlamoq, etlam, eylanmoq, eshakolma, eshakyo‘l, eshkinlamoq, qot, qotaymoq, qovunqurt.

Har bir xalqning, millatning yoki urug‘ning o‘ziga xos tarzda ishlatadigan, foydalanadigan so‘zlari mavjud. Bunday so‘zlar o‘zga xalqda yoki urug‘da boshqa so‘zlar bilan ishlatilishi mumkin. Bu kabi jarayon adabiy tilda “xalq shevalari” deb yuritiladi. Mustaqillik yillarida o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishga e’tibor ancha kuchaydi. Buning o‘ziga xos qator ijtimoiy-siyosiy sabablari mavjud. O‘zlikni anglash, tarixni chuqur bilish, adabiy tilni taraqqiy ettirish, uning leksik tarkibini ichki manba asosida boyitish zaruriyati sheva xususiyatlarini atroflicha tadqiq etishni etmoqda. Professor Hasanboy Jamolxonov lahja va sheva tushunchalariga quyidagicha ta’rif beradi: “Lahja – fonetik, leksik, grammatik umumiylik asosida birlashgan shevalar yig‘indisi. U dialekt nomi bilan ham ataladi. Sheva – muayyan tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi”. [1:18]

Xalq shevalarini biz quyidagi so‘zlarda ham ko‘rishimiz mumkin.

ESKANLAMOQ Allergiya toshib, badani qichishmoq. *Asabiylashganim bois badanim eskanlab ketdi.* (Asad Dilmurod, Oq ajdar sayyorasi). [2:107]

Bu Samarqand viloyatining ma’lum hudud kishilari uchun tushunarli bo‘lgan so‘z. Men bodom gulini hidlasam, badanimda **eskanlash** sodir bo‘ladi. Changda yurish – menda **eskanlash** sodir bo‘lishiga olib keladi.

ETLAM Tuproqli. *Ular xuddi yuzga toshgan yaradek etlam yerda bo‘rtib yotadi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Toshlar orasidan o‘tgan yo‘l tugab, etlam yerga chiqdik.* (Hakim Sattoriy, hazrat Sohirqiron). [2:107]

Asosan, Qashqadaryo viloyati uchun ma’lum bo‘lgan shevaga oid so‘z. Bu so‘z shuning uchun izohli lug‘atga kirmagan, lekin so‘zlashuv uslubida kengroq doirada

foydalaniladi. **Etlam** yerda hosildorlik mo‘l-ko‘l bo‘ladi. Yoz vaqtida quyosh nuri qizdirgan **etlam** yerda yurish sog‘lik uchun foydali.

EYLANMOQ kechikmoq. *Ro ‘zika momo noiloj yana oshxona tomonga o‘tdi va biroz eylanib, qo‘lida kichikroq bir tuguncha bilan Yoqit momo oldiga kirdi.* (Komil Avaz, Yoqut momo). [2:107]

Mazkur so‘zning adabiy tilda sinonimik qatori mavjud: kechikmoq, hayallamoq. Ota dalaga borishdan avval ishlarni tugatayin deb, ancha vaqt **eylanlab** qoldi. Toshmat bugun negadir dars qilishga **eylanladi**.

ESHAKOLMA olmaning yovvoyi, asosan, to‘g‘rab qoramollarga beriladigan navi; rozmarin. *U yerda baland-baland o‘sgan daraxtlar bo‘lardi. Nimagadir, bu navni odamlar “eshak olma” deyishardi.* (Nodir Normatov, Jazo). *Tanasini qurt kemiraverib-kemiraverib g‘ovak qilib tashlagan eshakolma ostini Ulg‘ay ena supurib-sidirdi.* (Shoyim Bo‘tayev, Kunbotardagi bog‘). *Nozirlar ham har xil takliflar kiritishibdi: -- Tirigicha yerga ko‘mib, ustiga eshakolma ekish kerak.* (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari). [2:107]

Bu olma turi yozda achchiq bo‘ladigan, qishgacha turib, keyin ta‘m kiradigan olam xalq tilida **eshakolma** deyiladi. Daraxtdan tushgan **eshakolmalarni** terib qoqi qilib qo‘y, Nazira, qishda o‘zimiz qaynatib ichamiz.

ESHAKYO‘L tog‘li joylarda yolg‘izoyoq yo‘l. *Shamol-u izg‘irin bo‘lib, qor qalin yog‘ishiga qaramay, Intizor qishloqqa tezroq yetish niyatida eshakyo‘ldan jo‘nabdi.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti). [2:107]

Bu so‘z hozirgi kunda ham O‘zbekistonning ba‘zi viloyatlarida faol ishlatiladi. Sherali qishda yolg‘iz **eshakyo‘ldan** yurishga qo‘rqadi. Ahmadga qorong‘uda **eshakyo‘l** juda ham qo‘rqinchli tuyuldi.

ESHAKSHO‘RA Gultojixo‘rozdoshlarga mansub, poyasi tik, tukli, shoxlanib o‘sadigan, bo‘yi 20-25 sm bir yillik begona o‘t: machin. *Zufiqor kun bo‘yi Chag‘irtepada tentiradi, u yerda bir nima izlayotgan odamga o‘xshab tosh, chag‘ir, qum aralash tuproq, siyrak shuvoqlar-u eshaksho‘ralarni oralab, ularni nazardan o‘tkazdi.* (Normatov, Zulayho daraxti). [2:107]

Bu o‘t ariq bo‘yi, bog‘ va ekinzorlarda, partov yerlarda keng tarqalgan. Asosan, chopiqtalab ekinlar orasida ko‘p uchraydi. Eshaksho‘ra begona o‘tlarga qaraganda kechroq unib chiqadi. Ochil buva bir haftadan beri dalada ishlab, ekinlar orasidagi **eshaksho‘ralarni** terib chiqyapti.

ESHKILLAMOQ haddidan oshmoq. *[O‘g‘iloy Xumor yig‘ichiga:] eskillama, manjallaqi.* (Mamadali Mahmudov, O‘lmas qoyalar). [2:107]

Bu Forish tomonlarda keng qo‘llaniladi, lekin bu so‘z adabiy tilda qo‘llanilmagani uchun u izohli lug‘atga kiritilmagan. Nozima juda **eskillagani** uchun Kamron uni rosa kaltakladi.

ECHKIICHAK (*Astragalus unifoliolatus* Bge.) dukkakdoshlar oilasiga mansub, cho‘lda o‘sadigan yem-xashak chala buta. *Buning ustiga Qarovul tepa xashakning koni. Andiz-u yantoq, shuvog‘ - echkiichaklar to‘p-to‘p bo‘lib o‘sib yotadi.*(G‘ozi Rahmon, Ko‘chki). [2:107]

Bu o‘simlik Qashqadaryo tomonlarda juda ham ko‘p o‘sadi. Normat tog‘dan olib kelib, qishga yetarli **echkiichak**larni g‘amlab qo‘ygan.

QORCHIN to‘rt burchagi boylanadigan, taxminan 70 kilo yuk solish mumkin bo‘lgan qopning turi. *Dastavval 30-40 oila qorchin qoplarda tuyalarga tilla ortib keladi.* (Sobir O‘nar, Xoja Noner ota). [2:247]

QOT q. **qatov**. *Qotlarda o‘tlar olqori, Qoyadan qiyg‘ir patlari. Suv sachratar sangloqlari Birgina so‘zni zikrlab. (Holmuhammad Hasan, Sehr). Kurtiklab qolgan och ayiqday burama shoxinimi qayraydi olqor mo‘miyoli qot qirrasiga.* (Holmuhammad Hasan, O‘lan). [2:247]

Bu so‘zni izohli lug‘atda uchratishimiz mumkin, lekin u yerda boshqa ma‘nodalarda ham kelgan. Qatov so‘zi o‘tlar o‘sadigan adir yoki qirlarga o‘xshash yerlardir.

QOTAYMOQ 1. Qotmoq. *O‘g‘ilcha ham yursin, u ham dalani ko‘rsin, suyagi qotaysin.*(Hakim Sattoriy, Sog‘inch). 2. Ulg‘aymoq. *Momo mamnun jilmayib qo‘ydi, ko‘nglidan “ Yolg‘izim ancha qotayib qolar ekan “ degan andisha o‘tdi.*(Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Shu oqshom xonadonlarida nima voqea ro‘y berayotganini zarracha tushunmas, hali qotaymagan o‘g‘il ana shu izdihomning ichida ekanini his qilmasdi.*(Hakim Sattoriy, Sog‘inch). [2:247]

Bu bolaning yoki o‘smirning voyaga yetadigan davrini, ya‘ni har nimani ko‘rib yoki eshitib o‘ziga kerakli xulosani chiqarishiga aytiladi. Suyagi pishiq (qattiq) holga kelmoq; o‘zini tuta oladigan bo‘lmoq. Mazkur so‘z yurtimizning ko‘p joylarida ishlatiladi. Suyagi paxtachilikda **qotaygan**.

QOVURJIN // QOVURCHIN yetim qovurg‘a. **Qovurjini qotgan.** o‘smir yoshidagi. *Ancha shubhali hol. Chunki ovulning bo‘z bolalari oldindan tayyorgarlik ko‘rishi, qovurjini qotgan bolakay qadoq qo‘llarini soyabon qilib, ko‘kdagi ozod qushlarning sirli raqsini hayratlanib kuzatib turadi.*(Anvar Suyunov, Mangu qo‘shiq).—*Otadan uch yetim qoldik. Onamizning chehrasini esa, yaxshi eslolmayman. Lekin ikkisiniyam Xudoyam ko‘p ko‘rgan ekan; ukam qovurchini qotmay bizlarni tashlab ketdi.*(Anvar Suyunov, Yo‘qchi). *Eshak ildam yo‘rg‘alagani sayin yo‘lovchilarning jussasi yaqinlashib boradi: egarda soch-soqoliga oq oralagan o‘rta yoshli kishi. Orqasida oyoqlarini likkilatib kelayotgan, qovurchini qotgan bolakay.* (Anvar Suyunov, Yo‘qchi). [2:247]

QOVUNQURT qovunni un bilan qaynatib, shinnisini qoshiqlab mato ustiga quyib, qotirilib tayyorlanadigan to‘q rangli shirinlik, pastila. *Qovun pishdi degandan buvim qovun shinni, qovunqurt, qovunqoqi tayyorlashni boshlaydi. Qovunqurt qilish*

uchun qovunni mayda to‘g‘rab, uni un bilan pishiradi; quyilgach, men o‘lchakning tomida bo‘z dasturxon ustiga qoshiq bilan bitta-bitta quyib chiqaman. Qishda sandalga tikilib, qovunqurtlarni shimib o‘tirishni sevardik.(Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening) [2:247]

Qoraqalpoq yurtida ishlatiladigan faol so‘zlardan biri. Qovunning o‘zi davo, **qovunqurt** esa ming dardga shifo. Noilaga onasi **qovunqurtlarni** yig‘ishtirib olishini aytdi.

Yuqoridagi so‘zlarning ko‘pini hozir ham kundalik turmushda ishlatamiz. Chunki adabiy til ham xalq shevalari orqali boyib, kengayib, takomillashib boradi. Xalq shevalari adabiy tilning o‘zak nuqtasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yana qo‘shimcha tarzda aytadigan bo‘lsam, shevalardan vos kechib bo‘lmaydi. Chunki inson shevalar orqali o‘z fikrini to‘la, ixcham, shu bilan birga, aniq va tez ifodalashga yordam berdi. O‘quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tugatishda ehtiyotkorlik lozim. Avvalo, o‘quvchilarga xalq shevalariga xos so‘zlar tilimizning boyligi, milliy va ma‘naviy qadriyatlarimizning uzviy qismi ekanini uqtirish kerak. Ammo ularni o‘rinli-o‘rinsiz qo‘llayverish, ayniqsa, yozma nutqda shevalarga xos so‘zlarni ishlatib yuborishdan saqlanish lozimligini tushuntirish zarur.

Xalq shevalarini o‘rganish orqali o‘tmishdagi urug‘-qabilalarning joylashish hududini aniqlash, yozma yodgorliklarini topish mumkin. Keltirilgan misollarning tuzilishi boshqa-boshqa bo‘lishiga qaramay, mazkur so‘zlar xalq shevalari o‘rtasida birgina predmet, narsa va hodisalarni anglatadi. Yuqorida o‘rganilishga asos bo‘lgan ma‘lum shevaga oid so‘zlar nafaqat o‘zi foydalaniladigan hudud, balki boshqa hudud kishilari uchun ham tushunarli bo‘lib bormoqda. Shuning uchun ham xalq shevalari tilning jonli shaklidir. Shunday ekan, shevalar adabiy tilga emas, adabiy til shevalarga moslashib borishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov H. A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. – T.: “Talqin”, 2005. 260 b.
2. “O‘zbek xalq so‘zlari”. Toshkent, 2023, 247 b.
3. S. Ashirboyev. “O‘zbek dialektologiyasi”. – Toshkent. 2013.